

---

## Fuqarolardan tushgan takroriy va ijobiy hal etilmagan murojaatlar qayta o'rganilmoqda

Rishton tumanida "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da fuqarolar murojaatlarining ijobiy hal etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sayyor qabullar davomida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, Ishonch telefonlari, virtual qabulxonalar orqali tushgan murojaatlar ham doimiy nazoratga olingan. Murojaatlarning muntazam tahlil qilib borilishi orqali faoliyatini samarali yo'lga qo'ymagan bo'limlar, korxonalar va tashkilotlarga amaliy yordamlar ko'rsatish bilan birga ogohlantirishlar hamda intizomiy choralar ham berilmoqda. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida tushgan murojaatlar tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan tahlil qilindi. Tumanimiz mahallalarida yashovchi o'nga yaqin fuqarolar tomonidan bir turdagi murojaatlar ijobiy hal etilmagani bois bir necha bor takroran yana qayta yo'llangan. Murojaatlar tuman hokimi, sektor rahbarlari hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirokida joyiga borib o'rganildi. Shu kunga qadar 7 ta murojaat joyida hal etildi. Tumanimizda fuqarolaridan takroriy va ijobiy hal etilmagan murojaatlarni qayta o'rganishlar davom etmoqda.

2022-05-11 18:12:59